

“QASOSKORNING OLTIN BOSHI” – TARIXIY-SARGUZASHT
ROMAN SIFATIDA

Lutfullayev Jahongir Amirovich

*Jizzax davlat pedagogika universiteti
F.f.f.d. (PhD)*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bolalar yozuvchisi X.To‘xtaboyevning “Qasoskorning oltin boshi” romani o‘zbek bolalar adabiyotida tarixiy-sarguzasht roman janrini boshlab bergan roman yekanligi, romanda tarixiy voqelik va badiiy to‘qimaning o‘rni kabi masalalar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Tarixiy-sarguzasht roman, tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima, bolalar adabiyoti, bolalar romanchiligi, prototip.*

“Besh bolali yigitcha” romani chop etilganidan keyin o‘tgan to‘rt yildan ortiqroq vaqt mobaynida X.To‘xtaboyev go‘yoki, dam oldi, bu orada avvalgi asarlarining qayta nashrlaridan tashqari yangi asari maydonga kelmadi. Lekin o‘tgan to‘rt yillik muddat yozuvchi uchun bekorga ketmagan ekan. 1980-yilda “Qasoskorning oltin boshi” romani chop etildi va asar nashr qilinishi bilan og‘izga tushdi. Avvalo, kitobga so‘zboshi yozgan O‘zbekiston xalq yozuvchisi P.Qodirov XX asr boshlarida Zarafshon vodiysida ro‘y bergan Namoz botir boshchiligidagi xalq ozodlik harakati el og‘ziga tushgani, mashhur rus yozuvchisi Anna Almatinskaya “Zulm” trilogiyasida Namozni xalq qasoskori deb baholagani, trilogiyada Namozga bag‘ishlangan bir yarim betlik lavha borligi, Abdulla Qodiriy Namoz haqida roman yozmoqchi bo‘lib, shu maqsadda Samarqandga va Namoz tug‘ilib o‘sgan qishloqqa borib, uning o‘shanda tirik bo‘lgan opasi O‘g‘uloy bilan uchrashgani, undan ko‘p narsalarni so‘rab olgani, keyinchalik Izzat Sulton “Noma‘lum kishi” she‘riy dramasiidagi bosh qahramon Niyoz siymosiga Namozni prototip qilib olgani, shunday katta yozuvchilarni qiziqtirgan tarixiy shaxs haqida roman yozish uchun iste‘dod va mehnatdan tashqari ijodiy jur‘at ham kerakligi, X.To‘xtaboyev mana shu xayrli ishga dadil qo‘l urgani, Namoz botir hayotiga oid hamma narsalarni astoydil o‘rgangani, qahramonning yurtiga borib, uni ko‘rgan-bilgan barcha odamlarni topib, batafsil suhbatlashgani va nihoyat, o‘zidan oldingi adabiy asarlarda to‘plangan yaxshi ijodiy an’anani davom ettirib, bu katta mavzuni roman janri taqozo etadigan epik ko‘lamda maroqli qilib mujassam eta olgani”ni alohida ta’kidlaydi [Qodirov P. 3:13-15].

1981-yilda dastlab taniqli adabiyotshunos O.Sharafiddinovning “Botirlarning umri boqiy” deb nomlangan salmoqli maqolasi, undan keyin filologiya fanlari nomzodlari M.Sattorovning “Namoz polvon haqida qo‘shiq” va H.Karimovning “Mardlar bilan go‘zal bu dunyo” maqolalari yuzaga keldi. Sh.Murodovanning “Namoz botir” maqolasida esa Namoz harakati bilan bog‘liq bir qator e’tiborli arxiv

materiallariga tayanilgan holda, Namoz harakatining ijtimoiy asoslari va bu harakat oqibatlaridan benihoya tashvishga tushib qolgan Turkiston general-gubernatori tomonidan uni yo‘q qilish uchun amalga oshirilgan harbiy harakatlar to‘g‘risida qimmatli arxiv materiallari keltirilgan [Murodova Sh. 4: 103-107].

Adabiyotshunoslar qalamiga mansub har uchala maqolada “Qasoskorning oltin boshi” romani adabiyotimizda o‘ziga xos hodisa bo‘lgani ta’kidlanib, asar o‘zbek tarixiy romanchiligida ilgari qo‘yilgan yangi dadil qadam sifatida baholanadi. Bir asar haqida ketma-ket uch maqola e‘lon qilinishi, aslida, bejiz emas. Chunki 1980-yilda, hali sho‘ro saltanati dag‘dag‘alari kuchida turgan bir paytda xalqimiz milliy ozodlik harakatining yorqin bir sahifasini shu qadar dadillik bilan qalamga olishning o‘zi oson ish emas edi. Shuningdek, Namoz boshchiligidagi milliy ozodlik harakatiga munosabatlar O‘zbekistonning o‘zida bir xilda ijobiy bo‘lmagani ham ma’lum. Buni O.Sharafiddinov domla ham alohida ta’kidlab: “Ayrim odamlar ba’zan “Namoz harakati juz’iy ahamiyatga ega bo‘lgan mahalliy xarakterdagi stixiyali, ongsiz harakat edi”, “Namoz shaxsiy o‘ch olish, boylik orttirish uchun bosh ko‘targan” degan fikrlarni aytib yurishadi. Yana ba’zi birovlar esa “Namoz diniy shiorlarni bayroq qilib olgan, islom nomidan ish yuritgan” degan gaplarni aytishdan ham toymaydi”, deydi [Sharafiddinov O. 6:18] va fikrini dalillash uchun quyidagi tarixiy fakti keltiradi: “Namoz harakatining ajoyib tomonlaridan yana biri shundaki, tarixiy hujjatlarda ko‘rsatilishicha, unda o‘n yetti millat vakili ishtirok etgan. Bu Namoz harakati diniy ramkalarga sig‘maydigan harakat bo‘lganidan dalolat beradi” [Sharafiddinov O. 6:19].

Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, yozuvchi oldida ushbu asarni yaratish bilan bog‘liq bir qator muammolar turgan. Adib o‘z romani bilan hali qo‘rqoqlik psixologiyasidan qutulolmagan qanchadan qancha hamkasblari, adabiyotshunoslar va tarixchilarga ham javob bera olishi kerak edi. Ayniqsa o‘zbek bolalar nasrida Mirkarim Osimning uzoq tariximiz tasvirlangan bir qator tarixiy qissalaridan boshqa tarixiy asarlar yo‘qligi ham inobatga olinadigan bo‘lsa, X.To‘xtaboyev oldida turgan muammolarning yana bir jihati maydonga chiqadi. Bundan tashqari, istiqlol sharofati bilan bugun aytish mumkin bo‘lgan yana bir holat ham borki, 1980-yilda Namoz harakati haqida asar yozish mo‘g‘ul yoki arab bosqinchilariga qarshi kurashgan qahramonlar haqida asar yozish bilan bir xil emas. Chunki sho‘rolar hukumati nima bo‘lganda ham, chor Rossiyasining vorisi, demakki, chor Rossiyasi bosib olgan hududlarni ham o‘ziniki deb hisoblaydi. Hali sho‘rolar hukumatining bosib olingan hududlar ustidan kolonial siyosati tugamagan bir paytda Namoz harakati haqida bu qadar jiddiy ma’lumotlarga asoslangan asar yaratish uchun yozuvchidan nihoyatda katta jasorat talab qilinardi.

Shu sababli ham O.Sharafiddinov maqolasida asarni batafsil tahlil qilib, “roman to‘rt yillik mashaqqatli izlanishlarning, tig‘iz ijodiy mehnatning samarasidir. X.To‘xtaboyev uzoq muddat davomida arxiv materiallarini, Namoz ustidan bo‘lgan sud hujjatlarini, politsiya axborotlarini o‘rganadi. Turkistondagi inqilobiy harakatga bag‘ishlangan ilmiy-tarixiy asarlarni o‘qiydi, Namozni tanigan odamlarning xotiralarini to‘playdi. Oqibatda Namoz va uning sheriklari haqida, Namoz harakat qilgan joylardagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol to‘g‘risida boy material yig‘adiki, bu davr ruhini ishonarli ko‘rsatishga, voqealarni konkret va ishonarli bayon etishga, qahramonlar qiyofasini aniq tasvirlashga imkon bergan. Biroq adabiyotda faqat material bilan ish bitmaydi. Material har qancha boy bo‘lmasin, u saralanmasa, shu material zaminidagi ulkan hayotiy haqiqatni ifodalovchi mohiyat topilmasa, yozuvchining muvaffaqiyat qozonishi mahol. Adib badiiy to‘qima yordamida ijodiy fantaziyasining quvvati bilan hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantiradi” [Sharafiddinov O. 6:16-17] – deb yozadi.

Ana shu, to‘rt yil mobaynida zahmatlar bilan yig‘ilgan nihoyatda katta hajmli materialdagi hayot haqiqatining saralanib, tom ma‘nodagi badiiy haqiqatga aylantirila olinishi “Qasoskorning oltin boshi” asari badiiyati va umrboqiyiligini ta‘minlagan asosiy jihatdir desak, xato bo‘lmasa kerak. Shu boisdan ham Namoz botir nafaqat bolalarning, balki katta yoshdagi kitobxonlarning ham sevimli qahramoniga aylana oldi. Romanga sof bolalar adabiyoti nuqtayi nazaridan qaraydigan bo‘lsak, u o‘smirlik yoshidagi kitobxonlarga mo‘ljallangan asar. O‘smirlik esa bolalik bilan voyaga yetish o‘rtasidagi pog‘ona, bu yoshdagi bola o‘zini bola deb hisoblashlarini istamaydi, u endi yigit bo‘lyapti, demakki, hayotdan ham o‘ziga ibrat bo‘la oladigan, yo‘l ko‘rsatadigan qahramonni izlaydi, xuddi o‘shanday qahramonliklar ko‘rsatgisi keladi, barchaning o‘ziga havas bilan qarashini istaydi. Uning qalbida eng pok insoniy tuyg‘u – ishq-muhabbat sekin-asta kurtak otyapti, u atrofidagi qizlar orasidan eng go‘zalini, eng barkamolini tanlagisi keladi, har bir xatti-harakati bilan unga munosib bo‘lishga, uning nazariga tushishga harakat qiladi. Namoz botir bu borada o‘smir uchun eng havas qilgulik qahramon, chunki u ozodlik uchun tolmas kurashchi, mehnatkash bechora xalq dardlariga malham, o‘z yurtini ingliz bosqinchilaridan ozod qilish uchun kurashgan Robin Gud singari tom ma‘nodagi xalq qasoskoridir.

“Qasoskorning oltin boshi” romani nafaqat o‘zbek bolalar adabiyoti, balki X.To‘xtaboyev ijodi uchun mutlaqo yangi hodisa. Asarda qalamga olingan voqealar ham, qahramonlar ham yozuvchi ijodidagi jiddiy burilish bo‘lganligi aniq. Chunki “Sehri qalpoqcha” va “Sariq devni minib” asarlarida tasvirlangan voqea-hodisalar X.To‘xtaboyev uchun avvaldan tanish, qahramonlar ham o‘zi o‘qituvchi, ilmiy bo‘lim mudiri, maktab direktori bo‘lib ishlagan paytdagi xulq-atvori, fe‘li-tabiati

ham, o‘qishga, ilm olishga munosabati ham turli-tuman bo‘lgan o‘quvchilar bo‘lsa, “Sariq devning o‘limi”dagi voqealar ham asosan yozuvchi o‘sha paytlarda felyetonchi-muxbir bo‘lib ishlagan muhit vakillaridan iborat edi. Binobarin, bosh qahramon Hoshimjon sarguzashtlari tasvirlarida yozuvchiga sehrli qalpoqcha “yordam”ga kelganini hisobga olsak, ular tasvirlaridagi hayotiylik sarguzasht-fantastikaga yo‘g‘irilgani bilan yosh kitobxon uchun yanada qiziqarli bo‘lgani tabiiy. “Qasoskorning oltin boshi”da esa yozuvchi mutlaqo boshqa muhitni qalamga olyapti. Tasvirlanayotgan voqealar salkam yetmish yil oldin kechgan. U paytdagi hayot tarzi bilan XX asrning 80-yillaridagi hayot tarzi o‘rtasida yetmish yildan ortiqroq farq bor. Demak, yozuvchi to‘rt yil mobaynida sinchkovlik bilan yiqqan materiallarini yana o‘sha qadar sinchkovlik bilan elakdan o‘tqazishi, saragini sarakka, puchagini puchakka ajratib, tarixiy qahramon hayot yo‘lini nafaqat qiziqarli, balki ishonarli qilib tasvirlashi ham kerak edi.

O.Sharafiddinov fikricha: “Qasoskorning oltin boshi” tarixiy-biografik roman emas, shuning uchun ham muallif Namozning hayot yo‘lini batafsil yoritib berishni maqsad qilib olgan emas. Adib o‘rni-o‘rni bilan Namozning yetim o‘sganini, Mujik qishlog‘idagi Ivanboy qo‘lida ishlab yurganida o‘qib savod chiqarganini, rus tilini o‘rganganini, hatto Moskva va Peterburgga borib borib kelganini, yigitlik davri poygalarda, uloqlarda sovrin talashib o‘tganini ma’lum qiladi. Hikoya davomida biz Namozning Samarqandda rus sudyasi huzurida bir necha muddat tilmochlik qilganini, aql-zakovati, bilimga chanqoqligi, pishiq-puxtaligi bilan rus to‘ralarining hurmatini qozonganini, qozilar undan hayiqqanini bilib olamiz. Bu ma’lumotlar Namoz biografiyasini to‘la yoritmasa-da, har holda uning xarakterini tushunib olishimizga, Namozni kurashga otlantirgan ichki omillarni aniqroq tasavvur qilishimizga yordam beradi” [Sharafiddinov O. 6:17].

Darhaqiqat, domla ta’kidlagan yuqoridagi ichki omillar Namoz obrazining nafaqat yosh kitobxonni, balki muayyan hayot tajribasiga ega bo‘lgan katta yoshli kitobxonni ham qanoatlantira oladigan darajada ishonarli chiqishini ta’minlagan. Namozning o‘zigagina qilingan nohaqliklar, zulmlarga qarshi emas, balki ezilgan mehnatkash xalqqa qilinayotgan jabr-zulmlarga qarshi xalq qasoskori darajasiga yetishi ham romanning dastlabki o‘n bobida yetarlicha asoslangan. Hayotda ko‘rgan jabr-zulmlari-yu nohaqliklardan to‘yib ketib Namoz safiga qo‘shilgan, “ko‘cha-ko‘yda ochu sarson yurgan yetimlar haqqi, boylar eshigida qora yerning kemasidek ishlab, haqqini ololmay yurgan cho‘riyu qarollar haqqi, hokimu to‘ralar qamchisidan boshi yorilgan alamzadalar haqqi, izzat-nafsi toptalgan yo‘qsillar haqqi, haqoratlar, xo‘rlashlar, kamsitishlar belini bukkan mazlum-mazlumalar haqqi, boylar dunyosiga o‘t qo‘yamiz!” deb ichgan qasamlarida Namoz

safdoshlarining zolimlarga qarshi omonsiz kurashi sabablarini yozuvchi juda ishonarli ochib bergan.

Romanda tasvirlangan Namozning haqiqiy yigitlarga xos mardona sifatleri tasvirlangan boshqa turli voqealar ham nihoyatda ishonarli va ta’sirchan tasvirlangan. Bu jihatdan ayniqsa, Namozning qurshovga tushgan paytda bevaqt to‘lg‘oq tutib qolgan sevgilisini qutqarish uchun o‘z ixtiyori bilan chor hukumati askarlariga asir tushishi lavhalari tasviri mard yigitning tom ma’nodagi mardona harakati sifatida naqadar ishonarli bo‘lsa, shu qadar ta’sirchan hamdir. Hatto chor hukumati zobiti Golov ham Namozning fidoyiligi va mardligiga tan berib, uning homilador xotinini ozod qilib yuborishi voqealari tasviri shu qadar yorqin tasvirlanganki, bu sahifalarni o‘qigan nafaqat yosh kitobxon, balki katta yoshli odamning ko‘ziga ham beixtiyor yosh kelishi tabiiy.

O.Sharafiddinov fikricha ham: “romanning eng yaxshi sahifalaridan biri – qurshovda qolgan Namozning o‘z sevgilisini saqlab qolish uchun ixtiyoriy ravishda askarlarga taslim bo‘lgani tasvirlangan sahifalardir. Unda biz Namozning fidoyiligini ham, mardligini ham, dovyurakligini ham juda ta’sirli ifodalaganini ko‘ramiz” [Sharafiddinov O. 6:20-21].

Namoz qanchalar aqlli, mard, fidoyi inson bo‘lsa, shu qadar beg‘ubor, ishonuvchan hamdir. U yonidagi yigitlarga, ayniqsa, Arslonqulga, u necha bor pand bergan bo‘lsa ham, xuddi o‘ziga ishonganday ishonadi. Ehtimolki, aslida, bu ham mardlarga, botirlarga xos bo‘lgan vallomatlik, bag‘rikenglik xususiyatidir. Shu sababli ham u Arslonqulning sotqinlikkacha borib yetishini hatto xayoliga ham keltirmagan bo‘lishi mumkinligiga yosh kitobxonning beixtiyor ishongisi keladi.

“Qasoskorning oltin boshi” romanini, aslida, yosh kitobxon bir o‘tirishda qo‘lidan qo‘ymay o‘qib tushiradi. Asardagi voqealar oqimining keskinligi, yangidan yangi kutilmagan sahnalarning ketma-ket kelib chiqaverishi asar qiziqarliligini yanada oshirishi tabiiy. Yozuvchi esa asarning yanada o‘qimishlilikini ta’minlash maqsadida har bir holatga o‘ziga xos intrigalar qo‘shadi. Shu jihatdan asarning boshidan oxirigacha davom etadigan Mirza Hamdamboy bilan Namoz to‘qnashuvlari yovuzlik kuchlari bilan ezgulik o‘rtasidagi bir umrlik omonsiz kurash tasvirlari sifatida romanning eng xarakterli sahifalari sifatida baholanishi joiz deb o‘ylaymiz. Chunki Hamdamboy boshqa salbiy obrazlardan farqli ravishda asarda nihoyatda aqlli, o‘qimishli, ushlaganini kesadigan bir so‘zli odam bo‘lsa-da, aql-farosati, bilimi faqat molu mulk, boylik orttirishga yo‘naltirilgan, bu borada hech qanday razillikdan qaytmaydigan noinsof, vijdotsiz odam sifatida tasvirlangan. Shu jihatdan uning Namozdan o‘ch olish uchun uni “ot o‘g‘risi”ga chiqarib, tuhmat qilishi va qamatib yuborishi bilan bog‘liq tasvirlar Hamdamboyning o‘z manfaati yo‘lidagi noinsofli, vijdotsizligi naqadar chek-chegarasiz ekanligini yaqqol

ko‘rsatadi. Shu sababli ham ular o‘rtasidagi kurash romanda shunchaki ikki odam o‘rtasidagi adovat emas, balki ikki qarama-qarshi qutb, yaxshilik va yomonlik kuchlari o‘rtasidagi bir umrlik omonsiz kurash sifatida namoyon bo‘ladi.

Yozuvchi romanda yovuzlik kuchlari va ezgulik tarafdorlarining ko‘plab vakillari obrazlarini yaratadi. Biroq bu obrazlar tasvirida u hamisha xolislikka intiladi. Masalan, yovuzlik kuchlarining eng ashaddiy vakili Hamdamboy xarakteri yomonlikning barcha nopok jihatlarini o‘zida jamlagan salbiy obraz sifatida tasvirlangan bo‘lsa, Dahbed qozisi Shodixon To‘ra va uning poraxo‘r mulozimi Mirza Qobil aslida, bor-yo‘g‘i boylar qo‘lidagi qo‘g‘irchoq poraxo‘rlar ekanligi qator voqealar bayonida X.To‘xtaboyev uslubiga xos istehzo bilan tasvirlanadi. Bo‘lis hokimi Mirza Homid xarakteri tasvirida X.To‘xtaboyev yanada o‘ziga xos yo‘l tutadi. Mirza Homid hukmron tabaqa, ya‘ni ezuvchi sinf vakili sifatida bir qator holatlarda Namoz bilan to‘qnash kelsa-da, aslida, uning tabiati insof, diyonatdan ham xoli emas. Hamdamboyning talonchiligi, mehnatkash xalqqa qilayotgan zulmlarini ko‘rib, hokimlikdan voz kechadi.

Romanda Namoz tarafdorlari qanchalik ko‘p bo‘lsa, g‘animlar ham ulardan oz emas, uni doim qo‘llab-quvvatlagan hamqishloqlari-yu qanchadan qancha turli millat vakillari bir tomon bo‘lsa, xalq qonini so‘rish evaziga kun ko‘rib yurgan amiru amaldorlar, qoziyu to‘ralar, pul, boyluk dardida ularning hamtovoqlariga aylangan sotqinlar bir tomon. Ularning ba‘zilari asarning boshidan oxirigacha goh u, goh bu vaziyatlarda o‘zlarining kimliklari, qiyofalarini ko‘rsatsa, bir qismi bir-ikki holatda ko‘rinib, shu bilan asardan chiqib ketadigan epizodik obrazlardir.

Romanda tasvirlangan bunga o‘xshash yana qanchadan qancha voqealar yozuvchi ushbu asarida hayot haqiqatiga qanchalar sodiq qolgan, ularni bo‘yab-bejamagan bo‘lsa, hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirishda ham badiiylik talablariga shunchalar sodiq qolganidan dalolat beradi. Ehtimol, ba‘zi o‘rinlarda (Namoz va Nasibaning sevgi tasvirlarida) yozuvchi biroz sentimentallikka yo‘l qo‘ygan bo‘lishi ham mumkin, biroq bir-biriga intilgan ikki qalbning qaynoq munosabatlari balandroq pardalarda tasvirlanishi ham muayyan ma‘noda o‘zini oqlaydi. Chunki butun umri jangu jadallar, zolimlarga qarshi kurashlar bilan o‘tgan Namoz uchun Nasiba bilan o‘tgan visol ayyomlari alamu azoblarni unutishning birgina imkoni. U har bir yigit singari, ozgina bo‘lsa-da, sevgi nashidasini surishga haqli deb o‘ylaymiz.

X.To‘xtaboyev asarlari haqida fikr yuritilar ekan, xohlaysizmi, yo‘qmi, yozuvchining deyarli har bir asariga xalq og‘zaki ijodining salmoqli ta‘siri masalasiga to‘xtamaslikning iloji yo‘q. “Qasoskorning oltin boshi”dan oldinroq yaratilgan “Sehrli qalpoqcha”, “Sariq devni minib” va “Sariq devning o‘limi” asarlarida hech shubhasiz, xalq og‘zaki ijodida o‘ziga xos o‘rin tutadigan “sehrli

element”, ya’ni sehrli qalpoqcha folklordan yozma adabiyotga “ko‘chib”, ushbu asarlarning boshidan oxirigacha qahramonning doimiy va sadoqatli yo‘ldoshi sifatida xizmat qilgan edi. “Qasoskorning oltin boshi”da esa tiriklik paytidayoq ko‘rsatgan mardlik va jasorati bilan kambag‘allar himoyachisi sifatida el og‘ziga tushib, u haqda qo‘shig‘u dostonlar yaratilgan va afsonaviy qahramonga aylanib ketgan Namoz botir haqida xalq og‘zaki ijodidan ayri holda tom ma’nodagi yuksak badiiyatga ega bo‘lgan asar yaratishni o‘ylab ham bo‘lmasa kerak.

O.Sharafiddinov maqolalarida “Qasoskorning oltin boshi” romanining fazilatlarini va ba’zi nuqsonlari mufassal tahlilga tortilgani uchun ularning fikrlarini takrorlab o‘tirmaymiz. Eng asosiysi, “Qasoskorning oltin boshi” janr xususiyatlariga ko‘ra ham adabiyotimizda yangi hodisadir. Bizning adabiyotimizda birinchi marta tarixiy sarguzasht janrga mansub asar paydo bo‘ldi”[Sharafiddinov O. 6:25].

X.To‘xtaboyevning o‘zi esa ushbu asari maydonga kelishi sababini quyidagicha izohlaydi” “Chexlar yaratgan “Kapitan Tenkeshning sarguzashtlari” filmini butun o‘zbekistonlik bolalar sevib tomosha qilgan kezlar o‘ylab qoldim: nomardlarni ahmoq qilib, tutqich bermay yura oladigan qahramon yo‘qmi o‘zimizda? Shu o‘y “Qasoskorning oltin boshi” romani yaratilishiga turtki bo‘lgan” [Xurshid Do‘stmuhammad bilan suhbat. 1:132]. Demak, yozuvchi qayd etganidek, muayyan asar yaratilishiga nimadir turtki, sabab bo‘lishi mumkin, lekin gap natijada: shu turtki sabab yaratilgan asar ham o‘sha turtkiga munosib bo‘la oladimi, yo‘qmi? Nazarimizda, “Qasoskorning oltin boshi” romanining bu savolga javobi to‘la ijobiy. Roman o‘zbek bolalari, o‘smirlari, balki katta yoshli kitobxonlar ham sevib o‘qiydigan tom ma’nodagi bestseller asarga aylana oldi va o‘zbek bolalar romanchiligi tarixida, ayniqsa, tarixiy sarguzasht janrida o‘zining munosib o‘rnini egalladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Kitobingni el o‘qisin” (Xurshid Do‘stmuhammad bilan suhbat) / Dunyoga tanilgan adib. – B. 132
2. Karimov H. Mardlar bilan go‘zal bu dunyo (1982). Dunyoga tanilgan adib. – B. 88-91.
3. Qodirov P. Botirlarga o‘lim yo‘q (1981) / Dunyoga tanilgan adib. – B. 13-15.
4. Murodova Sh. Namoz botir / Dunyoga tanilgan adib (2000). – B. 103-107
5. Sattorov M. Namoz polvon haqida qo‘shiq” (1981). Dunyoga tanilgan adib. – B. 98-100
6. Sharafiddinov O. Botirlarning umri boqiy (1981) / Dunyoga tanilgan adib. – B. 16-26;